

## Sovet hokimiyatining Samarqanddagi qatag‘onlik siyosatining boshlanish tarixi (1921-1923 yillarda)

*Xotamov Jahongir Alisher o’g’li*

*SamDU Tarix fakulteti 4-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar – prof. Saidov Ilhomjon*

### Annotation

As the Soviet regime consolidated its power, its characteristics began to manifest more and more openly. This situation was particularly evident in relation to the leaders of the national republics. The established administrative-command system and its leading core, the All-Union Communist (Bolshevik) Party - VKP(b) seriously started to build the "fundamentals of socialism" by this time and occupied a dominant position in all spheres of society.

Key words: All-Union Party, Communism, Repression, Socialism, "Cleaning" company, "Great Terror", Education, "National Independence" movement.

### Аннотация

По мере укрепления советской власти ее черты стали проявляться все более открыто. Особенно ярко это положение проявлялось в отношении руководителей национальных республик. Сложившаяся административно-командная система и ее руководящее ядро - Всесоюзная коммунистическая (большевистская) партия - ВКП(б) к этому времени всерьез приступили к строительству "основ социализма" и заняли господствующее положение во всех сферах жизни общества.

Ключевые слова: Всесоюзная партия, коммунизм, репрессии, социализм, компания «Чистка», «Большой террор», просвещение, движение «Национальная независимость».

### Annotatsiya

Sovet rejimi o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgach, uning xususiyatlari tobora oshkora namoyon bo‘la boshladi. Bu holat xususan milliy respublikalardagi rahbar xodimlarga munosabatda yaqqol namoyon bo‘ldi. Qaror topgan ma’muriy-buyruqbozlik tizimi va uning rahbar o‘zagi hisoblangan Butunitifoq kommunistlar (bolsheviklar) partiyasi – VKP(b) bu paytga kelib “sotsializm asoslari”ni qurishga jiddiy kirishdi hamda jamiyatning barcha sohalarida hukmronlik mavqeyini egalladi.

Kalit so’zlar: Butunitifoq partiyasi, Kommunizm, Qatag’onlik, Sotsializm, “Tozalash” kompaniyasi, “Katta terror”, Maorif, “Milliy istiqlolchilar” harakati.

## KIRISH

Jahon tarixi odamzod o’zi yashab turgan makonida ko’p miqdorda yovuzlik, jinoiy harakatlar ijod etganiga shohiddir. Fransuz olimi Laynus Polinga o’zining “Hech qanday urush bo’lmashin” nomli asarida yer yuzida keyingi 5,5 ming yil davomida 14500 ta katta va kichik urushlar bo’lib, ularda 4 milliardga yaqin odam halok bo’lgan, bu bundan bir necha o’n yil oddin yer kurrasida yashayotgan odamlar miqtsoriga tengdir», deb yozgan edi<sup>1</sup>.

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillar boshida O‘zbekiston SSRda o‘n sakkizlarguruhi (Abdurahim Hojiboyev, Inomjon Xidiraliyev, Muxtorjon Saidjonov va b.), inog‘omovchilik (O‘zSSR Maorifxalq komissari Rahim Inog‘omov va b.), qosimovchilik (O‘zSSR Oliy sudi raisi Sa’dulla Qosimov va b.), badriddinovchilik (O‘zSSR Oliy sudining prokurori Shamsutdin Badriddinov va b.), “milliy ittihodchilar” va “milliy istiqlolchilar” (Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi 87 nafar kishi), “narkompros” ishi (O‘zSSR Maorif xalq komissari Mannon Ramziy, uning o‘rinbosari Botu va b.), “botir gapchilar” (Qo‘qonda Ashurali Zohiriy boshchiligidagi 19 nafar kishi) va boshqa siyosiy ishlari to‘qlishi natijasida o‘zbek xalqining ko‘plab yetuk farzandlari qatag‘on qilindi. Bu davrda

<sup>1</sup> Шамсутдинов Р. Усмонхон қатағон қурбони // Ўзбекистон овози, 2001, 27 январь. 6-6.

kommunistik partiya saflarini “tozalash” kompaniyasi natijasida O‘zbekiston Kompartiyasi a’zolarining 25,6 foizi firqadan chiqarildi<sup>2</sup>.

## ASOSIY QISM

Oktyabr to’ntarishi oqibatida Turkistonda zo’rlik bilan o’rnatilgan mustamlakachi Sovetlar tuzumi birinchi kundan boshlab xalqlarimiz boshiga son-sanoqsiz qirg’inlar, dahshatli va alamli kulfatlar olib keldi. Bu dahshatli rejimni o’lkamiz xalqlari qabul qilmadilar. Ular istiqlol uchun, erk va milliy-ozodlik uchun 16 yil mobaynida qurolli kurash olib bordilar. Bu kurash davomida, ayrim xorijdagи muarrixlar hisobicha, 1 million 900 ming vatandoshimiz Turkistondan bosh olib, xorijiy mamlakatlarga chiqib ketdi va 1 million 700 ming yurtdoshimiz Sibirga, Uzoq Shimolga, Ukrainaga, Shimoliy Kavkazga, Uralga, Qozog’istonga, Uzoq Sharqqa, Kavkazga, Volgabo’yi rayonlariga badarg’a qilindi<sup>3</sup>.

«Katta terror»ning 1937-yil 30-iyuldan boshlanib 1938 yil noyabriga qadar davom etganligi, shu vaqt ichida 1,5 million kishi qamoqqa olingan, shundan 700 mingi otib yuborilgan. “Katta terror”ning qahrli tig’i jamiyat a’zolarining barcha toifalarini o’z domiga tortgan. Ayniqsa, “katta terror”dan aholining quyi tabaqasidagilar ko’p jabr-zulm ko’rganlar. NKVDning 00486-sonli buyrug’i bo’yicha 1938—1946 yillarda Qarag’andaladagi “Aljir” lagerida “Vatan xoinlarining oila a’zolari”dan 6500 ayol jazoni o’tagan. Xalq dushmani tamg’asi bilan qatag’on bo’lganlarning farzandlari maxsus bolalar muassasalarida saqlangan. 1937-yil 15-avgustdan 1939-yil yanvarigacha Ittifoq bo’yicha 25342 bola oilasidan ajratib olingan, ulardan 22427 nafari Xalq maorifi komissarligi hududidagi bolalar uylariga va mahalliy bog’chalarga tarqatib yuborilgan, shundan 1909 nafari Moskvada bo’lgan, nafari boshqalarga boqish uchun oilalarga qaytarib berilgan. Bu bolalarning

<sup>2</sup> Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожиали оқибатлари. –Т.: Шарқ, 2001. – 368 б.

<sup>3</sup> Турсунов И. Узбекистан маорифчиларининг истиқтол ўулидаги кураши тарихидан (1917-1930 йиллар). Ташкент: Узбекистан, 1995.

yoshi 15 gacha bo'lgan. Yoshi 15 dan yuqorida bo'lgan bolalar "ijtimoiy xavfli" hisoblanib, qamoqqa olingan va hukm qilingan.

Qarag'anda lageridagi mahbus ayollar jazo muddatini o'tayotganlarda 1507 nafar farzand ko'rganlar, bu bolalar ko'pincha sevgi asosida emas, zo'rlik asosida dunyoga kelganlar<sup>4</sup>.

Rasmiy shiorlarda millatlarning o'zi belgilash xuquqini ozodlik va tenglikni va'da qilgan sovet hokimyati amalda mutloqo boshqacha siyosat olib bordi. Sovet hokimyati tarkibiga maxalliy axoli vakillari kiritilmadi. Saylov huquqi xam va'da qiliganidek, xamma uchun berilmadi. Manbalarda qayd etilishicha, RSFSR konstituttsiyasining 65 – moddasi va Turkiston ASSR konstituttsiyasiga ko'ra foyda olish uchun yollanma mehnatdan foydalanayotganlar, xususiy savdo bilan shug'ullanayotganlar, vositachilar, diniy ulamolar, sobiq amaldorlar saylash va saylanish huquqidan mahrum etilgan.

Saylov huquqidan mahrum qilish bo'yicha maxsus komissiya faoliyat yuritib, ushbu komissiya o'z yig'ilishlarida saylov huquqidan maxrum etilganlarni ro'yxatini e'lon qilib turgan. Masalan, Zarafshon okrugi saylov huquqidan mahrum qilish masalasi bo'yicha komissiya Kattaqurg'on tumanidan savdo bilan shug'ullangan Iris Kattaev, Ismat Xushvaqtov, Elmurod Tojiev, Juma Eshmurododov, Ochildi Turdiev, Murod Turdiev, Xaydar Nurmamatov, ruhoniylar toifasidan Juma Shodmonov, Boybo'ri Raxmonovlarni, sobiq amaldorlardan esa Xo'ja va Ali Mirzaevlarni saylov xuquqidan maxrum etgan .

Sovet hukumati boshqaruv tizimining barcha bug'umlarini tashkil etish jarayonida o'ta keskin siyosat olb bordi . Masalan, qozi sudlarini yo'q qilish uchun ularning obro'yini tushirishga xarakat qilib, barcha okrug prokurorlariga o'ta maxfiy bayonnomma yuboradi unda qozi sudlari boy va savdogorlar huquqini himoya

<sup>4</sup> Xranitъ vechno. Kniga pamjati jertv massovmx politicheskix repressii 30—40 gt. nachala 50-x godov. Uznitsm "Aljira" Karlaga. Astana, 2001, str. 3.

qiluvchi tashkilot sifatida qoralanadi. Vaxolanki bu davrda amalda maxalliy axoli ko'proq qozi sudlariga ishonch bildrib , ularga murojaat qilishgan .

Viloyatda sovet xokimiyati butun o'lkada bo'lgani kabi dastlabki kunlardanoq proletar diktaturasi shaklidagi mustabid xokimyatni shakllantirib , maxalliy axolini xuquq va manfaatlari bilan xisoblashmadi. Balandparvos shiorlarda ozodltk va tengnlikni va'da qilgan xukumat amalda Jamiyatni sinflarga bo'lib, "sinfiy dushman" ni yo'q qilishga , xalq muleini tortib olib , davlvt mulkiga aylantirishga kirishdi . Proletar inqilob nomi bilan amalga oshirilgan bu ishlar tabiiy ravishda mahaliy axoli noroziligidagi chabab bo'ldi . Dastlab Farg'ona viloyatida avj olgan norozilik to'lqini Samarcand viloyatida xam muxolifat kuchlarni oyoqqa turg'uzdi . Butun Turkiston bo'y lab sovet hokimiyatiga qarshi avj olgan qurolli kurashlarni bostirish jarayonida qatag'on siyosatining birinchi bosqichi amalga oshirildi.<sup>5</sup>

Sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat Turkiston muxtoriyati hukumatining tor – mor qilinishi bilan boshlanganligi shu kungacha deyarli barcha tarixchilarning asarlarida e'tirof etilgan . Bolsheviklar rejimiga qarshi qurolli kurash xarakatining markazi Farg'ona vodiysi bo'lib, mazkur kurashlarning yirik sardorlatsri bo'lmish Madaminbek Shermuhammadbek, kichik Ergash, katta Ergash qo'rzboshilar bo'lsada bu kurashlardan Samarcand viloyati ham chetda qolmadi . Farg'ona vodiysida boshlangan bu kurashlar keng quloch yoyib , Samarcand qiloyatiga xam tarqaldi . Bu yerdagi kurashga Ochilbek , Baxrombek , Hamroqulbek kabi yirik qo'rzboshilar boshchilik qildilar . Ayni paytda viloyatda Said Murod qo'rzboshi , Dodhohbek , Sariqulboy , Qoraqulbek kabi kishilar raxbarligida kichik to'dalar xam paydo bo'lib , ular tarqoq holda mustaqil ravishda bol'shiviklarga qarshi kurash olib bordilar<sup>6</sup>.

Sovet hokimiyati muxolifat kuchlarni yo'q qilish maqsadida jazolovchi organlar tarmog'ini shakinlantirib , ularga kengvakolatlar bergen . Masalan , 1920 – yilda

<sup>5</sup> T.f.n., dots. A.Toirovning "O'zbekistonda sovet hokimiyatining qatag'on siyosati" (Samarcand viloyati misolida. 1918-1938 yy.) mavzusida yozilgan ilmiy tadqiqot ishi 25-b.

<sup>6</sup> Ишонхужаева З. Р. Некоторые аспекты исследования воздействия репрессивных акций советской тоталитарной системы на культурно-духовную жизнь Узбекистана. //Вестник, КирГУ. 2002, №2. – С. 160-163;

Samarqand viloyati inqilobiy tribunalni tashkil yetilgan bo'lib , uning a'zolari ishchi , saldat , musulmon dexqon deputatlari Samarqand qiloyati soveti tomonidan saylangan. Inqilobiy tribunalda rais , kotib , mirzo va 40 ta a'zo faoliyat yuritgan bo'lib unda 6 kishidan iborat komissiya ham maqjud edi . Inqilob dushmanlarini jazolash maqsadida tashkil etilgan tashkilotlardan yana biri favqulodda "uchlik" guruxi bo'lib , Samarqand viloyatining O'ratega uezdida 1921 – yilning 4 – noyabrida shunday guruh tashkil etilganligi manbaalarda qayd etiladi . Shuningdek, O'rategadagi sovet tuzumiga qarshi qurolli harakatning taniqli qo'rboshilaridan Abdul odirxonning sovet hukumati bilan muzokara olib borib shartnomaga tuzganligi, shartnomaga binoan Abdul Qodirxon bayrog'i, muhrini topshirib, o'z yigitlari bilan qizil armiya xizmatiga o'tganligi, sovet hukumati esa Abdul Qodirxon va uning yigitlarini ozod yurishiga kafolat bergenligi ma'lum.

1921 yilda Turkiston ASSRda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning markazlaridan biri Samarqand viloyati bo'lganligi, harakat viloyatning Samarqand, Jizzax, O'ratega, Xo'jand va Kattaqo'rg'on uezdlarida jiddiy tus olganligi manbalarda qayd etilgan. Boshqa bir manbada Samarqand viloyatida sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat avj olayotganligi, bu jarayon, ayniqsa, Samarqand uezdida shiddatli tusga kirayotganligi yana bir bor ta'kidlanadi. Mahalliy ma'muriyatga hududning jug'rofiy joylashuvini, mahalliy urf-odatlarni yaxshi biladigan yerli xalqdan otliq guruhlar tuzib, qo'zg'olonchi guruhlarni jangga tashlash kerakligi hamda mahalliy aholi orasida bolshevistik targ'ibot, tashviqotni kuchaytirib, ularni «bosmachilik» harakati guruhlariga qarshi kurashga chorlash zarurligi tavsiya etiladi. Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasining 1921 yil 15 noyabrida bo'lib o'tgan yig'ilishida qurolli harakatga qarshi kurash masalasi muhokama qilinadi. Sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat viloyatning barcha hududlarida, ayniqsa, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uezdlarida keng quloch yoyganligi ta'kidlanadi. Militsiya tomonidan ularga qarshi olib borilayotgan janglar natijasiz tugaganligi, buning uchun prezidium eng keskin choralarmi qo'llashi, viloyat militsiya tarmog'ini kengaytirishi zarurligi ta'kidlanadi. Viloyat ijroiya qo'mitasi

qoshida favqulodda «uchlik» guruhini tashkil etib, unga keng vakolatlar beriladi. Bunday guruhlар faoliyati natijasida birgina, Kattaqо'rg'on uezdida qurolli harakatning 80 nafar vakili qo'lga olingan. Lekin bu choralar qurolli muxolifat harakatini bostira olmadi.<sup>7</sup>

Samarqand viloyati militsiya boshqarmasi boshlig'ining 1922 yilda 2 oy davomida olib borgan ish faoliyati to'g'risidagi hisobotida «bosmachilik» harakati Samarqand, O'ratega uezdida (ayniqsa, Mitan tumanida) keng tus olayotganligi, ular militsiyaga hujum qilib, unga katta talofat yetkazayotganligi ta'kidlab o'tilgan<sup>8</sup>.

Samarqand viloyati O'ratega uezdining Ganchi volosti O'ratega uezdida qurolli harakatning markazi hisoblangan. Bu yerda sovet hukumatiga qarshi harakat natijasida 1917-1922 yillarda Matcho bekligi deb atalgan mahalliy hukumat faoliyat olib borgan. Ganchi volostidagi qurolli harakatning qisqacha tarixi quyidagicha: 1917 yilgi fevral inqilobidan keyin Mudjum qishlog'ida yashovchi Xolbo'ta eshon «Sho'roi islomiya» tashkilotining a'zosi bo'lib, shu tashkilot tomonidan «shariat qozisi» lavozimiga tayinlangan. Oktyabr to'ntarishidan keyin sovet hukumati eshonni ushbu lavozimidan chetlashtirgan va qozilik lavozimini yo'q qilgan. Sovet hukumatining islom diniga qarshi turganligini, xalqning urf-odatlari, an'analarini poymol etayotganligini ko'rgan eshon unga qarshi tashviqotni avj oldirgan. Natijada, Xolbo'ta eshonni 2 oy davomida qamab qo'ygan. Qamoqdan chiqqandan keyin u qurolli harakat guruhiga qo'shilib, sovet hukumatiga qarshi kurash olib bongan. Xuddi shu davrda Farg'ona vodiysida istiqlolchilik harakati keng quloch yoygan edi. Xolbo'ta eshonning asli kelib chiqishi farg'onalik bo'lganligi uchun u yerdagi qo'zg'olonchilar guruhlari bilan aloqa bog'lagan. Bolsheviklar bilan olib borilgan qonli janglarning birida Xolbo'ta o'zining 80 ta yigitini yo'qotib yengilgan va chekinishga majbur bo'lgan. Ammo u keyinchalik yana kuch yig'ib, Ganchi

<sup>7</sup> Норжигитова Н. Историография басмаческого движения в Туркестане (Советский период). Дис... канд. ист. наук. – Ташкент: Институт истории АНУз, 1995. – 143 с.

<sup>8</sup> Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожиаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Т.: Шарқ, 2003. – 542 6.

qishlog’ida paydo bo’lgan hamda barcha bolsheviklarni hamda ularning maslakdoshlarini qatl etgan. Xuddi shu vaqtidan boshlab Xolbo’ta qo’rboshi O’ratepadagi sovet tuzumiga qarshi qurolli harakatning yo’lboshchisi bo’lib qoldi hamda tez orada uning yigitlarini soni 600 tadan oshgan. Bolsheviklar tomonidan Matcho bekligi tugatilgandan keyin ham Xolbo’ta qo’rboshi qizil armiyaga qarshi o’z harakatini davom ettirganligi ma’lum<sup>9</sup>. Samarqand viloyatining O’ratepa shahrida yashovchi Akram Xoji Avliyoxo’jaev, Akobirxon Otaxonov, Fayzulla Jumaboev, Yusufjon Nosirjonovlarga qarshi 1923 yilning mart oyida jinoiy ish qo’zg’atilgan. Ular 1922 yilda Xolbo’ta qo’rboshi guruhiga 12 ta vintovka yetkazib bergenlikda ayblangan. Yuqoridagi ma’lumotdan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, Xolbo’ta qo’rboshi guruhiga xalq doimo madad berib turgan<sup>10</sup>. Samarqand uezdi ijroiya qo’mitasining raisi Mirusmonov va umumiy bo’lim boshlig’i Shishkinning Samarqand viloyati ijroiya qo’mitasiga taqdim etgan bildirishnomasida, qurolli muxolifat harakati tobora keng quloch yoyib, siyosiy tusga ega bo’lib borayotganligi ko’rsatilgan. 1921 yilning oxiri va 1922 yilning o’rtalarida sovet rejimiga qarshi qurolli harakat Farg’ona vodiysida rivojlangan, undan Samarqand viloyatiga ham o’tib jiddiy tus olganligi ta’kidlanadi. Bolsheviklarning turli anjumanlari va partiya konferentsiyalarida qurolli harakat guruhlariga qarshi kurash yo’llari belgilab olinib, bunday guruhlarning kuch-qudrati oshib borayotganligi tan olingan. Sovet tuzumiga qurolli harakatni susaytirishdagi asosiy «qurol» xalqning shuuriga bolshevistik aqidaparastlikni singdirib borish ekanligi bu kabi konferentsiyalarda doimo ta’kidlab o’tilgan. Turkiston kompartiyasi (TKP) Samarqand viloyat-shahar partiya qo’mitasining 7-viloyat konferentsiyasi, viloyat-shahar partiya qo’mitasi oldiga 1922-yilning 1-martidan 1923-yilning 1-martigacha qo’ygan muhim vazifalardan biri qurolli harakatga barham berishdan iborat deb hisoblangan. Konferensiyyada Samarqand viloyatida «bosmachilik» qarshilik harakati juda tez sur’atlar bilan rivojlanyotganligi, alohida

<sup>9</sup> Muhammadjonova L. Ozodlik qurboni // Fan va turmush. 1998, №6. Б. 20.

<sup>10</sup> Шамсутдинов Р., Абдуллаев М. Ўзбек кулоклари кимлар эди // Фан ва турмуш, 2000, №1. Б. 20-21, №2. Б. 22-23.

kichik o'zaro guruhlar birlashib, uyushgan katta guruhlarni tashkil etayotganligi, bu harakatga boshchilik qilayotgan qo'rboshilar soni oshayotganligi ma'lum qilinadi. Shuningdek, partiya va hukumat rahbarlarini o'ldirish odatiy holatga aylanayotganligi aytib o'tiladi. 7-viloyat konferentsiyasida viloyat-shahar qo'mitasi oldiga qurolli harakatga barham berish uchun bir qancha tadbirlar ko'rish zarurligi ta'kidlanadi. Bu tadbirlarga, jumladan, quyidagilar kirgan:

1. Hamma tashkilot va organlar o'z faoliyatini sovet hokimiyati dushmanlariga zarba berishga safarbar etish.
2. Mahalliy xalqdan militsiya guruhlari tuzish.
3. Mahalliy xalq orasidagi aksiinqilobiy kuchlarga qarshi doimiy ravishda tashviqotni avj oldirilishi.
4. Har bir uezdga viloyatning mas'ul xodimi rahbarligida maxsus ekspeditsiya tashkil qilish.

### XULOSA

Shu vaqtgacha sovet hokimiyati dushmanlariga qarshi kurashning butun mas'uliyati favqulorra «uchlik» zimmasida bo'lganligi, dastlabki vaqlarda viloyatda yetarli miqdorda qizil armiya qismlari bo'limganligi sababli muxolifatchi guruhlarga qarshi kurashda aniq natijalarga erishilmaganligi ta'kidlab o'tilgan. Aksincha, Sharqiy Buxoroda qurolli kurashning kuchayishi, Samarqand viloyatida sovet tuzumiga qarshi harakatning mustahkamlanishiga olib kelgan. Bu davrda kelib, Turkistonda sovet hokimiyatini ag'darish uchun yagona qurolli harakat fronti tashkil qilingan.

Milliy vatanparvar kuchlar mahalliy xalq ishonchini oqlash uchun xalqni islom va shariat dushmanlari bo'lgan bolsheviklarga qarshi kurashga chorlagan. Masalan, Samarqand uezdidagi nufuzli qo'rboshilardan bo'lgan Bahrombek va Ochilbeklar targ'ibot va tashviqotni keng yo'lga qo'yishi natijasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishganlar. Shunday holat vujudga kelganki, sovet hukumati ularga qarshi kurashda aytarli yutuqlarga erisha olmagan. Aksincha, aholi qurolli harakat guruhlari tomoniga o'tib, ularga ommaviy ravishda har tomonlama yordam ko'rsata

boshlagan. Vaziyat murakkab bo'lib, viloyatda bu vaqtida 15 ta yirik qo'rbossi faoliyat ko'rsatib, ularning guruhida minglab qurollangan yigitlar mavjud edi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhammadjonova L. Ozodlik qurboni // Fan va turmush. 1998, №6. B. 20.
2. T.f.n., dots. A.Toirovning "O'zbekistonda sovet hokimiyatining qatag'on siyosati" (Samarqand viloyati misolida. 1918-1938 yy.) mavzusida yozilgan ilmiy tadqiqot ishi 25-b.
3. Xranitъ vechno. Kniga pamyati jertv massovmx politicheskix repressii 30—40 gt. nachala 50-x godov. Uznitsm "Aljira" Karлага. Astana, 2001, str. 3.
4. Ишонхужаева З. Р. Некоторые аспекты исследования воздействия репрессивных акций советской тоталитарной системы на культурно-духовную жизнь Узбекистана. //Вестник, КирГУ. 2002, №2. – С. 160-163;
5. Норжигитова Н. Историография басмаческого движения в Туркестане (Советский период). Дис... канд. ист. наук. – Ташкент: Институт истории АНУз, 1995. – 143 с.
6. Турсунов И. Узбекистан маорифчиларининг истиқлол йулидаги кураши тарихидан (1917-1930 йиллар). Ташкент: Узбекистан, 1995
7. Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожиаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Т.: Шарқ, 2003. – 542 б.
8. Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожиали оқибатлари. –Т.: Шарқ, 2001. – 368 б.
9. Шамсутдинов Р. Усмонхон қатағон қурбони // Ўзбекистон овози, 2001, 27 январь. 6-б.
10. Шамсутдинов Р., Абдуллаев М. Ўзбек қулоқлари кимлар эди // Фан ва турмуш, 2000, №1. Б. 20-21, №2. Б. 22-23.